
XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH – KUN MAVZUSI



XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH – KUN MAVZUSI

Respublikamiz hududlarida ayollar, xotin-qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rnini yanada mustahkamlash, ularning har tomonlama himoyasini ta'minlashga qaratilgan ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy va qonuniy asos yaratilgan. 2019 yil 2 sentyabr kuni qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ham ayni ana shu maqsadlarni o'zida mujassam etgan.

So'x tumani Sharqobod mahalla fuqarolar yig'ini hududida shu masalaga bag'ishlab mahalla xotin-qizlari o'rtasida davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda mahalla faollari, tuman ichki ishlar bo'limi vakillari ishtirok etdilar.

So'x tumani IIB HPB HQMB katta inspektori, podpolkovnik Shahnoza Shodmonova tomonidan Qonunning asl mohiyati va mazmuni tushuntirib berildi. Jamiyatda gender tenglik masalalarining asosiy tushunchalari haqida ham ma'ruza qilindi.

Davra suhbat ko'tarinki ruhda o'tkazilib, ishtirokchilar tomonidan kun tartibidagi masalalar yuzasidan berilgan savollarga to'liq javoblar berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-26 17:35:02